

## **60810900-Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi.**

60810900-Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi shakllarida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, ishlab chiqarish boshqarmalari va boshqalar;
- yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslari, dala ekinlari va ularning navlari, urug‘lari, mahsulotlari; kimyoviy va biologik vositalar, texnik asbob- uskunalar, qishloq xo‘jalik texnikalari, agrotexnik tadbirlar; dehqonchilikda qo‘llaniladigan agrotexnik jarayonlar, dala ekinlarini yetishtirish texnologiyasi; qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish bo‘yicha texnologik xaritalarni tuzish; ilmiytadqiqot jarayonlari; agrosanoat majmui korxonalari, tashkilotlar, agroklasterlar, kooperatsiyalar, fermer xo‘jaliklarining boshqaruv tizimlari va jarayonlari.
- agrosanoat majmui korxonalari, tashkilotlar, agroklasterlar, kooperatsiyalar, fermer xo‘jaliklarida mehnat faoliyatini tashkil etish;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqaruv sohasida ishni tashkil etish va boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish.